

## QARSHI SHAHRI SHAROITIDA INTRODUKSIYA QILIGAN *HIBISCUS SYRIACUS* L. NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

A.L. Raximov, N. Yu. Xudoyqulova

Qarshi davlat universiteti. Qarshi. O‘zbekiston.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Hibiscus syriacus L.ning tabiiy va madaniy holda tarqalishi, introduksiya sharoitida gullashi, forma va navlarining ekologik omillarga bardoshligi, yorug‘sevarlik, issiq va sovuqqa bardoshlilik, zararli mikroorganizmlarga, tuproqdagi qurg‘oqchilikka bardoshlilik o‘rganilgan.*

*Kalit so‘zlar: Gulxayridoshlar, Malvaceae Juss., Hibiscus syriacus L., suriya gibiskusi, bioekologik, forma, nav, genetik, mikroorganizm, tuproq, qurg‘oqchilik, manzaralilik, atmosfera, ekstremal, Introduksiya.*

O‘simlik doimiy ravishda muhit omillarining ta‘sirida bo‘ladi. Uning tashqi muhitga chidamliligi turning genetik belgilari bilan mustahkamlangan bo‘lib, u ekstremal sharoitda aniq namoyon bo‘ladi [1; 42-77-b.]. O‘simlikning issiq va sovuqqa bardoshi uning muayyan sharoitda o‘stirish istiqbolini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri [2; 7-67-b.].

Tadqiqotimiz obyekti Gulxayridoshlar (Malvaceae Juss.) oilasiga mansub Siriya gibiskusi (*Hibiscus syriacus* L.), bo‘yi 5-6 m balandlikdagi buta yoki kichikroq daraxt. Tabiiy holda Xitoy, Hindiston va Kichik Osiyoda tarqalgan [3; 736-b.]. Madaniy holda Yer sharining tropik va subtropik mintaqalarida o‘stiriladi. Jumladan, Afrika, Amerika, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, MDH da keng tarqalgan. Ilmiy ma‘lumotlarga ko‘ra *H. syriacus* L. Siriya atirguli, Siriya malvasi, Ketmiya kabi nomlar ataladi [3; 736-b.].

Eramizgacha yoki eramizning boshida O‘rta Osiyo va Tibet orqali Shimoliy Xitoydan Yevropaga keltrilgan [4; 28-29-b.]. O‘zbekistonga jumladan Samarqandga

1894 yildan, Janubiy O‘zbekistonga dastlab 1930 yillarda Denov dendrariysida iqlimlashtirilgan. Qashqadaryoga 1980 yillarda Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish davrida keltirilgan. Ayni paytda Janubiy O‘zbekistonning barcha iqlimiy zonalari quruq subtopik, cho‘l, dasht, tog‘ oldi rayonlarida o‘stiriladi [5; 122-123-b.].

*Hibiscus syriacus* L.- bizning sharoitimizda 2 ta forma va 10 ta navi o‘stirilmoqda. Madaniy holda o‘stirilgan hududlarda ularning ekologik omillarga bardoshligi, iqlim ko‘rsatkichlari bir-biridan keskin farq qiladigan turli regionlarda ham o‘zining ekologik plastikligi yuqori bo‘lganligi sababli bemalol o‘sishi qayd qilindi.

Suriya gibiscusining yorug‘sevar o‘simlik ekanligi, ochiq joyda o‘stirilganda u juda yaxshi o‘sishi, Qarshi shahrida gullashni 22-25 maydan boshlashi va oktyabr va noyabr oylarigacha, 150-155 kun gullashi, quyoshning yuqori harorati ta’siriga ham bemalol bardosh berishi qayd qilindi.

*H. syriacus* ning zararli mikroorganizmlarga, tuproqdagi qurg‘oqchilikka bardoshli ekanligi, lekin sug‘oriladigan joylarda manzaralilik darajasi yuqori ekanligi qayd qilindi.

Tadqiqotlarda sanoat korxonalarini va magistral yo‘l yo‘qalarida ekilgan *H. syriacus* chang va chiqindilarni ushlab qolish qobiliyati va bunday salbiy ta’sirlarga bardoshi juda yuqori ekanligi isbotlandi. Shahardagi ifloslangan atmosfera havosi va tuprog‘i ta’sirida o‘zining manzarasini yo‘qotmasligi qayd qilindi. Natijada bunday joylarda suriya gibiskusi nafaqat manzarali o‘simlik sifatida, balki atrof-muhit ekologiyasini yaxshilashga ham xizmat qilishi aniqlandi.

Bizning tadqiqotlarimizda *H. syriacus* ning barcha navlari O‘zbekiston sharoitida namsevar va issiqsevar, jazirama issiq va sovuq haroratga bardoshlilik aniqlandi. Yoz mavsumida har hafta qondirib sug‘orishni talab qiladi. Yozning jaziramasida bemalol o‘sadi va rivojlanadi. Qarshi sharoitida esa barglarining cheti issiqdan qisman zararlanadi. Toshkentda bu holat kuzatilmaydi. Ekstremal davrda gullarining ochilishi sekinlashadi, jazirama issiq tugagach, ular qaytadan bo‘liq gullaydi.

Introduksiya sharoitida *H. syriacus* ning sovuqqa bardoshi bo'yicha aniq xulosaga kelish imkoniyati yaratildi. 2007/2008 yillar qishida Toshkentda havo harorati  $-28^{\circ}\text{C}$ , Qarshida esa  $-30^{\circ}\text{C}$ , ayrim joylarida  $-34^{\circ}\text{C}$  gacha tushib ketdi.

Qarshi shahri sharoitida uzoq yillardan buyon o'stirilayotgan va urug'idan ko'paytirilib mahalliyashgan *Oq gulli forma va va Siyohrang gulli* formalar sovuq  $-28^{\circ}\text{C}$  gacha tushganda yillik novdalarining bir qismi,  $-30^{\circ}\text{C}$  gacha tushganda esa ko'p yillik novdalari sovuqdan zararlanadi. Ular orasida eng bardoshlisi *Speciosus* navi bo'lib  $-28^{\circ}\text{C}$  haroratda ham mutlaqo zararlanmaydi. Qolgan barcha navlar ham odatdagi qishda zararlanmasligi va qattiq sovuq bo'lgandagina bir yillik novdalari zararlanishi qayd qilindi.

Shunday qilib, *H. syriacus* bizning sharoitimizda issiq va sovuq haroratga to'liq bardoshli deyishga barcha asoslar yetarli.

#### **FODALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Бородина Н.А. Математическая модель роста молодого древесного растения в течение вегетативного периода //Исследование древесных растений при интродукции. -М.: Наука, 1982. – С. 42-77.
2. Латин П.И., Сиднева С.В. Оценка перспективности интродукции древесных растений по данным визуальных наблюдений //Опыт интродукции древесных растений. - М.: Наука, 1973. – С. 7-67.
3. Деревья и кустарники СССР. ИВ том.М.Л-1958, 736-с.
4. Вильданова К.Д. Декоративные кустарники. Шарк. Ташкент. 2006. –С.28-29.
5. Набиев М.М., Казакбоев Р.Ю. Определитель декоративных деревьев и кустарников Узбекистана. –Ташкент. 1975. -С. 122-123